





BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2023- yil yanvar-iyun
oyi uchun dastlabki
ma'lumot)*

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

2023-yilning yanvar-iyun oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **653,3** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilga nisbatan **94,2** mln. AQSh dollariga yoki **16,8** % ga oshdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

	2022 - yil	2023 - yil	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	559,1	653,3	116,8	x
Eksport 	138,4	146,8	106,0	100,0
 tovarlar	132,6	136,4	102,9	92,9
 xizmatlar	5,8	10,4	179,3	7,1
Import 	420,7	506,5	120,4	100,0
 tovarlar	420,7	506,5	120,4	100,0
 xizmatlar	-	-	-	-
saldo	-282,2	-359,7	x	x




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi **4,2** mln. AQSh dollariga (6,0 % ga ko'paydi) oshdi va import hajmi **85,8** mln. AQSh dollariga (**20,4** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **359,7** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

BUXORO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Eron bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA BESHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2023-yil yanvar-iyun)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 5 ta davlatda faol tashqi savdo balansi Afg'oniston (**19,5** mln. AQSh dollari), Tojikiston (**13,3** mln. AQSh dollari), Qirg'iz (**7,9** mln. AQSh dollari), Ukraina (**1,5** mln. AQSh dollari), Pokiston (**1,3** mln. AQSh dollari)

15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Buxoro jahonning **63** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**43,8%**) Xitoy (**13,0 %**), Turkmaniston (**7,1%**) va Qozog'istonda (**7,7%**) qayd etilgan.



BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
 Rossiya Federesiyasi	50,8	106,5	286,3
<i>Eksport</i>	27,4	32,2	37,0
<i>Import</i>	23,4	74,3	249,3
 Xitoy	59,8	85	85,1
<i>Eksport</i>	22,2	10,4	4,9
<i>Import</i>	37,6	74,6	80,2
 Qozog'iston	19,4	36,9	50,1
<i>Eksport</i>	4,0	13,5	11,4
<i>Import</i>	15,4	23,4	38,7
 Turkmaniston	63,3	120,0	46,3
<i>Eksport</i>	3,4	4,1	5,5
<i>Import</i>	59,9	115,9	40,8
 Turkiya	46,0	65,7	39,9
<i>Eksport</i>	17,1	16,2	14,2
<i>Import</i>	28,9	49,5	25,7
 Afg'oniston	5,0	14,8	19,7
<i>Eksport</i>	4,7	14,5	19,6
<i>Import</i>	0,3	0,3	0,1
 Eron	86,8	28,2	19,4
<i>Eksport</i>	74,8	11,1	2,3
<i>Import</i>	12,0	17,1	17,1
 Tojikiston	4,3	5,6	15,0
<i>Eksport</i>	2,6	2,9	14,1
<i>Import</i>	2,7	2,7	0,9
 Germaniya	32,5	17,3	12,6
<i>Eksport</i>	0,7	1,4	3,9
<i>Import</i>	31,8	15,9	8,7
 Qirg'iziston	2,4	13,5	12,4
<i>Eksport</i>	1,5	12,7	10,2
<i>Import</i>	0,9	0,8	2,2



BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Litva	1,7	7,2	10,0
	<i>Eksport</i>	0,5	1,1	0,7
	<i>Import</i>	1,2	6,1	9,2
	Polsha	3,0	5,4	8,3
	<i>Eksport</i>	2,2	1,8	4,5
	<i>Import</i>	2,8	3,6	3,8
	Belorussiya	2,8	1,9	7,4
	<i>Eksport</i>	0,4	0,3	0
	<i>Import</i>	2,4	1,6	7,4
	Hindiston	2,2	2,3	5,6
	<i>Eksport</i>	0,2	0,6	3,2
	<i>Import</i>	2,0	1,7	2,4
	Koreya Respublikasi	9,4	2,9	3,6
	<i>Eksport</i>	0,3	0,2	0,4
	<i>Import</i>	9,1	2,7	3,2
	B.A.A.	0,8	1,2	3,2
	<i>Eksport</i>	0,5	0,8	2,0
	<i>Import</i>	0,3	0,4	1,2
	Niderlandiya	0,6	6,4	3,0
	<i>Eksport</i>	0	0	0,1
	<i>Import</i>	0,6	6,4	2,9
	Azərbayjon	0,9	3,0	2,6
	<i>Eksport</i>	0,7	0,6	1,8
	<i>Import</i>	0,2	2,5	0,8
	Pokiston	1,0	2,5	2,5
	<i>Eksport</i>	0,6	1,0	1,9
	<i>Import</i>	0,4	1,5	0,6
	Ukraina	2,5	3,7	2,0
	<i>Eksport</i>	1,0	2,2	1,7
	<i>Import</i>	1,5	1,5	0,3
	Chexiya	0,6	0,9	1,6
	<i>Eksport</i>	0,2	0,3	-
	<i>Import</i>	0,4	0,6	1,6

VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun, 2023-yil)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	653,3	116,8
<i>hududlar:</i>		
Olot	9,3	3,1 m.
Buxoro	18,8	34,8
Vobkent	17,0	79,9
G'ijduvon	34,4	80,0
Kogon	40,4	67,2
Qorako'l	16,4	59,6
Qorovulbozor	281,9	2,0 m.
Peshku	35,3	153,9
Romitan	22,8	84,8
Jondor	25,2	164,0
Shofirkon	12,4	47,7
Buxoro sh.	107,0	104,4
Kogon sh.	22,1	145,8
Aniqlanmagan tashkilotlar	10,3	4,3 m.

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Qorovulbozor – 281,9

Buxoro sh. – 107,0

Kogon – 40,4

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Qorako'l - 16,4

Shofirkon – 12,4

Olot – 9,3




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi bo'yicha eng yuqori ulushni Qorovulbozor 43,2 % ulush bilan 281,9 mln. AQSh dollarni, eng quyi ulushni Olot tumani 1,4 % bilan 9,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatning tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaralsa, 2023- yilning yanvar-iyun oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **64,7 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022 - yilga nisbatan 145,1 % ni tashkil etdi.

VILOYATNING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarining TSA si 2023- yilning yanvar-iyun oyida 2022- yilga nisbatan o'zgarish sur'ati **86,1 %** tashkil etib, jami TSA dagi ulushi **35,3 %** ni ko'rsatdi.



BUXORO VILOYATNING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



Rossiya
Federatsiyasi
TSA – 286,3
Eksport – 37,0
Import – 249,3



Qozog'iston
TSA – 50,1
Eksport – 11,4
Import – 38,7



Turkmaniston
TSA – 46,3
Eksport – 5,5
Import – 40,8



Tojikiston
TSA – 15,0
Eksport – 14,1
Import – 0,9



O'irg'iz Respublikasi
TSA – 12,4
Eksport – 10,2
Import – 2,2



Belarus
TSA – 7,4
Eksport –
Import – 7,4

1992 - yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-iyun holatiga **422,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **82,0** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **340,6** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**286,3** mln. AQSh dollar), Turkmaniston (**46,3** mln. AQSh dollar) va Qozog'iston (**50,1** mln. AQSh dollar) davlatlari bilan qayd etildi.



BUXORO VILOYATINING EKSPORTI


(2023- yil yanvar-iyun)



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatning eksportyorlari soni **195** tani tashkil etib, ular tomonidan **146,8** mln. AQSh dollar (2022- yilning mos davriga nisbatan **106,0** % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **92,9** % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (**48,1** %), Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, (**18,4** %)



BUXORO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-iyun oylari)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2021	2022	2022	2023
Jami eksport	138,5	146,8	78,8	106,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,4	13,8	129,5	64,3	15,5	9,4
Ichimliklar va tamaki	0,4	2,0	69,7	492,3	0,3	1,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,4	6,2	15,1	43,4	10,4	4,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	18,4	27,1	260,9	146,9	13,3	18,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,0	-	-	-	0,7	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,7	5,3	307,5	142,0	2,7	3,6
Sanoat tovarlari	69,7	70,6	150,5	101,3	50,4	48,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	-	2,8	4,2	-	-	1,9
Turli xil tayyor buyumlar	3,6	8,6	271,4	241,9	2,6	5,9
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	5,8	10,4	76,8	177,7	4,2	7,1



BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2022	2023	2021	2022	2022	2023
Rossiya Federasiyasi	32,2	37,0	117,4	115,5	1	1
Afg'oniston	-	19,6	-	-	16	2
Turkiya	16,2	14,2	94,6	88,1	2	3
Tojikiston	2,9	14,1	112,4	4,8 m.	7	4
Qozog'iston	13,5	11,4	3,4 m.	84,4	3	5
Qirg'iziston	-	10,2	-	-	17	6
Turkmaniston	4,1	5,5	121,9	134,7	6	7
Xitoy	10,4	4,9	46,9	46,9	5	8
Polsha	1,8	4,5	83,1	2,5 m.	9	9
Germaniya	1,4	3,9	189,7	2,8 m.	10	10
Hindiston	0,6	3,2	3,5 m.	5,7 m.	12	11
Eron	11,1	2,3	14,8	20,4	4	12
Litva	1,1	0,7	195,3	70,6	11	13
Koreya Respublikasi	0,2	0,4	52,6	2,1 m.	14	14
Italiya	2,0	0,1	6,9 m.	4,0	8	15
Niderlandiya	-	0,1	-	-	18	16
Belorussiya	-	4,6	-	-	19	17
Chexiya Respublikasi	0,3	-	188,8	-	13	18
Fransiya	4,6	-	129,3	-	15	19
Tayvan	-	-	-	-	20	20



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyun)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	146,8	106,0
<i>hududlar:</i>		
Olot	6,7	5,0 m.
Buxoro	3,0	46,5
Vobkent	7,5	72,3
G'ijduvon	15,4	76,8
Kogon	13,0	89,9
Qorako'l	10,3	81,0
Qorovulbozor	27,4	2,8 m.
Peshku	4,4	146,7
Romitan	13,0	95,5
Jondor	0,8	22,1
Shofirkon	3,8	49,2
Buxoro sh.	30,7	101,8
Kogon sh.	5,6	185,4
Aniqlanmagan tashkilotlar	5,2	254,0

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Buxoro sh. – 30,7

Qorovulbozor – 27,4

G'ijduvon – 15,4

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Buxoro – 3,0

Shofirkon – 3,8

Jondor – 0,8

Viloyatda eksport tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 20,9 % ulush bilan 30,7 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.

Viloyat eksport tarkibida eng quyi ulushni Jondor tumani 0,5 % bilan 0,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORT



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **10,9** mln. AQSh dollari qiymatli **37,8** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2022-yilning mos davriga nisbatan **2,2** mln. AQSh dollarida kamayish kuzatilib, **38,5 %** ga kamaydi. Sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **8,7** mln. AQSh dollariga teng **33,7** ming tonna sabzavot, shuningdek, **2,2** mln. AQSh dollari qiymatidagi **4,1** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-iyun)


Davlatlar	ming tonna	Mln. AQSH dollari	ulushi, % da *
Qozog'iston	31,0	5,6	51,3
Rossiya Federatsiyasi	5,8	3,2	29,3
Boshqa davlatlar	1,0	2,1	19,4

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozoqistonga to'g'ri keladi. Bu meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **51,3 %** ini tashkil qiladi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **10,4** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **7,1 %** ini tashkil etib, 2022- yilga nisbatan **79,3 %**ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**34,6 %**) va safarlar (turizm) (**43,9 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**13,8 %**) va boshqa xizmatlar **7,6 %**) ni tashkil etgan.




BUXORO VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oyida import hajmi **506,5** mln. AQSh dollarini va 2022- yilga nisbatan **20,4** % ga oshdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**56,1** %), Mashinalar va transport asbob-uskunolari (**22,3** %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yil yanvar-iyunda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **85,8** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **506,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



BUXORO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2021	2022	2023	2022
Jami import	420,7	506,5	161,5	120,4	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,1	15,0	94,1	105,8	3,4	3,0
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,1	247,7	23,2	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13,9	12,5	157,5	89,7	3,3	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	161,9	284,0	253,2	175,4	38,5	56,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	0,6	62,6	112,5	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	43,7	48,1	194,0	110,1	10,4	9,5
Sanoat tovarlari	36,2	25,3	150,3	69,9	8,6	5,0
Mashinalar va transport asbob uskunalari	135,7	113,0	126,7	83,2	32,3	22,3
Turli xil tayyor buyumlar	13,9	8,0	78,0	57,1	3,3	1,6
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,3	-	-	-	0,1	-



BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*



	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2022	2023	2021	2022	2022	2023
Rossiya Federasiyasi	74,3	249,3	3,2 m.	3,4 m.	3	1
Xitoy	74,6	80,2	198,4	107,5	2	2
Turkmaniston	115,9	40,8	193,5	35,2	1	3
Qozog'iston	23,4	38,7	151,9	165,4	5	4
Turkiya	49,5	25,7	171,2	51,9	4	5
Eron	17,1	17,1	142,3	100,2	6	6
Litva	6,1	9,2	5,5 m.	150,7	9	7
Germaniya	15,9	8,7	50,0	54,9	7	8
Belorussiya	0	7,4	0	0	20	9
Polsha	3,6	3,8	4,4 m.	105,8	11	10
Koreya Respublikasi	2,7	3,2	29,7	119,3	13	11
Niderlandiya	6,4	3,0	9,9 m.	46,6	8	12
Hindiston	1,7	2,5	85,0	142,7	15	13
Qirg'iziston	-	2,2	-	-	19	14
Chexiya Respublikasi	0,6	1,6	129,2	2,6 m.	16	15
Fransiya	3,6	1,4	19,7 m.	38,9	12	16
B.A.A.	0,4	1,2	151,9	3,1 m.	17	17
Italiya	3,7	0,9	23,9	40,0	10	18
Tayvan	0,1	0,8	64,9	12,9 m.	18	19
Tojikiston	2,7	0,8	155,6	30,6	14	20



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-iyun)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	506,5	120,4
<i>hududlar:</i>		
Olot	2,6	162,3
Buxoro	15,8	33,2
Vobkent	9,5	87,1
G'ijduvon	19,0	82,8
Kogon	27,5	60,1
Qorako'l	6,1	41,2
Qorovulbozor	254,5	196,7
Peshku	30,8	155,0
Romitan	9,8	73,8
Jondor	24,4	2,1 m.
Shofirkon	8,6	47,1
Buxoro sh.	76,3	105,5
Kogon sh.	16,5	135,9
Aniqlanmagan tashkilotlar	5,2	15,2 m.

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Qorovulbozor – 254,5

Buxoro sh. – 76,3

Peshku – 30,8

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Shofirkon – 8,6

Qorako'l - 6,1

Olot – 2,6

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **50,2 %** ulush bilan **254,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Olot tumani **0,5 %** ulush bilan **2,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.

Tel.: (65) 223-75-63

